

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

<https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu>

Maktabgacha ta’lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda ta’lim va tarbiyaning uyg’unligi ta’minlash

O’qituvchi: Qilichova Marhabo Xudoyqulovna

To’lanova Feruzaxon Turgunboy qizi

JDPI “Maktabgacha ta’lim”Fakulteti,

“Maktabgacha ta’lim “ fakulteti talabasi

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda ta’lim va tarbiyaning uyg’unligini ta’minlashning ahamiyati yoritilgan. Bunda bolalarni tarbiyalashda ta’lim va tarbiyaning uyg’unligi va ma’naviyatni shakkillantirishda muhum tavsiyalar berilgan.

Tayanch so’zlar: Maktabgacha ta’lim yoshi, tarbiyalanuvchi, tarbiyalash, ta’lim va tarbiya uyg’unligi.

Обеспечение гармонии в обучении и воспитании дошкольников.

Туланова Ферзахон Тургунбой кызы

студентка факультета дошкольного образования.

ДжГПИ Факультет дошкольного образования,

Аннотация

В статье подчеркивается важность обеспечения баланса между образованием и воспитанием в воспитании дошкольников. Данная статья содержит важные рекомендации по гармоничному обучению и воспитанию детей дошкольного возраста и формировании духовности.

Ключевые слова: дошкольный возраст, школьник, воспитание, сочетание обучения и воспитания.

Ensuring the harmony of education and upbringing in the upbringing of preschool children

Tulanova Ferzakhon Turgunboy qizi

a student of the Faculty of Preschool Education

JSPI Faculty of Preschool Education

Annotation

The article highlights the importance of ensuring a balance between education and upbringing in the upbringing of preschoolers. It contains important recommendations for the harmony of education and upbringing in the upbringing of children and the formation of spirituality.

Keywords: Preschool age, pupil, upbringing, combination of education and upbringing.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish va jahon hamjamiyati tomonidan rivojlangan davlat sifatida o'rinn olish vazifasi qo'yildi. Albatta yurtimizda jahon talablariga mos keladigan, har tomonlama rivojlangan, o'z kasbini puxta egallagan, vatanparvar fidoyi insonlarni tarbiyalab yetishtirishda maktabgacha ta'lim tarbiyanuvchilarini o'qitishni yanada yuksak bosqichga ko'tarish, uning tarbiya bilan uyg'unligini ta'minlash katta ahamiyatga ega.

O'zbek xalqi tarixan Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalashda umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash sohasida o'ziga xos dorulfunun yaratgan. Bu borada xalq pedagogikasi boy tajribaga ega. Bugungi kundagi Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etishda uning o'rni beqiyosdir. **Ta'lim va tarbiya mazmunining uyg'unligi** tamoyili bu kishilarga bilim va tarbiya berish jarayonidan iborat bo'lib, bunda egallangan bilim va ko'nikmalarini hayotga qo'llay olishga o'rgatiladi, hayotda ta'lim oluvchilarining ham intellektual, ham ma'naviy jihatdan uyg'unlikda rivojlanishi ta'minlanadi. Yaxlit ta'lim - tarbiya jarayonida ikkala o'zaro bog'liq juftlik, ya'ni bilim berish va tarbiyaviy ko'nikmalarini shakllantirish hamda shakllangan ta'limiy – tarbiyaviy bilimlar va ko'nikmalar bo'yicha faoliyat ko'rsatishga o'rgatish, obektiv borliqdagi qonuniyatlarini o'rganish va uning amaliy munosabatlarini tarkib toptirishda namoyon bo'ladi. Shu sababli ta'lim oluvchilarga bilim berishda egallangan bilimni amalda ishlatishga o'rgatish bilan birga ta'lim tarbiyalovchi ham bo'lishi kerak.

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lган ikki faoliyatni - o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiyajarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his va tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lган va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlari hosil bo'ladi. Psixologlar va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh ijobiy. xoh salbiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Bugungi globallashuv va texnika asrida yangi avlodning ma'naviy tarbiyasini boyitish, shu bilan bir qatorda moddiy e'htiyojlarini qondirish dolzar masala bo'lib turibdi. Mana shu davrda inson ma'naviyatini rivojlantirish hamda moddiy e'htoyojlarini qondirishda katta maqsadli vazifalarni amalga oshirish lozim. Chunki bola uchun yaratilgan shart-sharoitlar, bilimlar, to'g'ri olib borilgan tarbiya shu bilan birga ta'limning uyg'unligi tanimlash kelajakdagি orzularimizni ro'yobga chiqarishga poydevor vazifasini o'taydi. Bejizga ajdodlarimiz bola tarbiyasini ona vujudidan boshlashimiz lozim deyishmagan. Chunki ma'naviy jihatidan yetuk farzandlar bizning kelajagimiz demakdir. Shu sababli ham maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilariga alohida e'tibor ko'rsatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentabrdagi 637- sonli Qaroriga binoan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 7-moddasida Maktabgacha ta'lim, ta'lim sohasining bosh bo'g'ini sifatida tasdiqlanganligi buning yaqqol isbotidir.

Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini to'g'ri olib borishda o'quv materialini to'g'ri tanlash. Bunda ta'lim mazmuniga oid quyidagi jihatlarga e'tibor beriladi. O'quv materialini tanlashda mashg'ulotning maqsadi, ta'lim oluvchilarning oldingi mashg'ulotlarda olgan bilim va malakalariga, fan asoslariga oid bilimlarga, ta'lim oluvchilarning jismoniy rivojlanganligiga va shu kabilarga. O'quv materiali mazmuni ta'lim oluvchilarning oldingi tajribalari va fan asoslari bo'yicha olgan bilimlariga hamda mashg'ulotning maqsadiga muvofiq holda tanlanadi.

Ta'lim mazmunining ko'rgazmalilik tamoyiliga ko'ra ta'lim vositalaridan foydalanishning didaktik tamoyiliidir. Shu sababli o'rganilayotgan tushunchalarining mazmunini ochib berishga oid manbalar (pedagogik hodisa va jarayonlar) ajratib olinib o'rganiladi va o'rgatiladi. Ajratib olingen manbalarning ko'rgazmaliligin kuchaytirish uchun turli qo'llash usullari (rangli, raqamlı, harfli va shu kabilalar) qo'llaniladi. Manbalarni o'qitish jarayonida ular bilan ishlash uslublaridan asosiyлari kuzatish va tajriba o'tkazish hisoblanadi. O'rganilayotgan hodisa va voqealarni jonli idrok etish asosida o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Bu o'quv materialini aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilishni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalardan to'g'ri foydalanish ta'lim oluvchilarning pedagogika, psixologiya, tarbiyaviy ishlar metodikasi, o'qitish uslubi va texnikaga oid fanlarni puxta o'zlashtirib olishga ularda malaka hosil bo'lishiga yordam beradi. Agar ko'rgazmali qurol biron fikrni bildirish uchun yordamchi vosita bo'lsa, nutq asosiy qurol hisoblanadi. Ko'rgazmali qurol kuzatishni rivojlantirish uchun qo'llanilsa, nutq qisqa bo'lib kuzatishning

maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan bo‘ladi [4]. Biz bu jarayonda albatta ta’limning ko’rgazmalilik tamoyillaridan foydalanamiz.

Ta’limning ko’rgazmalilik tamoyilining yana bir vazifasi ta’lim jarayonidagi sifatni oshirishga, ta’lim oluvchilarining bilim olishlarini osonlashtirishga (oydinlashtirishga) qaratilgan faoliyat bo‘lib, unda ta’lim oluvchilardagi o‘rganilayotgan jarayonlarni (narsa va hodisalarini) bevosita hissiy – amaliy jihatdan idrok qilish asosida bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish asosdir. jarayoniga

Ta’limning uzviylik va uzlusizlik tamoyili ko’ra – bu ta’limda zarur fiziologik – psixologik qonuniyat hisoblanib, bilimni mantiqiy bog‘liqlikda o‘rganishni ta’minlab beradi. Bu tamoyil har bir fan bo‘yicha dasturiy va uslubiy tavsiyanomalar yaratishda joriy qilinadi va ular tushunchalar, dalillar va boshqa fikrlar orasidagi aloqadorliklardan kelib chiqqan qonun va qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqliklarni o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Bu qonuniyat ta’limni tashkil etishning asosi hisoblanadi. Bunga amal qilmaslik ta’lim mazmuniga salbiy ta’sirni keltirib chiqaradi, ya’ni ta’lim oluvchilar tafakkurida o‘zaro bog‘liq bo‘lidan uzuq – yuluq bilimlarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Ta’limda onglilik va faollik tamoyilida ko’ra ta’lim oluvchilar bilimini hayotda qo‘llay bilishlari uchun ta’lim mazmuni va unga mos ta’lim berish jarayonini faol fikrlash faoliyatiga aylantirishga to‘g‘ri keladi, ya’ni o‘qitishni shunday tashkil etish kerakki, bunda ta’lim oluvchilar bilimlarini dars mashg‘ulotlarida ongli va faol qatnashib egallab olsinlar. Shunda ta’lim oluvchilarda ong o‘sib, ijtimoiy tashabbuskorlik va o‘quv faoliyatida mustaqillik tarkib topadi. Ta’limning onglilik tamoyili ta’lim oluvchilarda tushuncha va qoidalarni yodlash va esda saqlash bilan ularni egallash emas, balki bu bilimlarni hayotiy hodisalar va jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lgan mazmunini tushunishlaridadir. Bu tamoyil tafakkurini shakllantiruvchi qoida bo‘lganligi uchun ham ta’lim oluvchilarni muammoni mustaqil hal qilishga o‘rgatadi. Shu bilan bir qatorda ta’lim berishga ilmiy yondoshganda ta’lim mazmunini ilmiy asosda tashkil etish tamoyilidan foydalaniladi unga ko’ra ta’lim oluvchilarni o‘qitish ishlarini faollashtiradigan, ongini o‘stiradigan, ilmiy dunyoqarashini kengaytiradigan, ularni mustaqil ta’lim olishga yo‘naltiradigan usullarga o‘rgatadi .

Ushbu jarayonda shuni takidlab o’tish lozimki, ta’lim va ta’rbiya uyug’inligini ta’minlashda faqat ilmi jihatdan yondoshib bo‘limaydi. Ta’lim va tarbiyaning uyg’unlashtirishda oilaning o’rnini beqiyos albatta. O’zbek xalqi tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o‘z qoidalarni asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma`lumotlaridan foydalanadi. Hozirgi zamон pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta’sir ko‘rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi ekanligi alohida ta’kidlash lozim. Tarbiya aqli, odobli, mehnatsevar, bilimli, sog‘lom, e’tiqodli, dilipok, har tomonlama ma’naviy rivojlangan, vatanparvar, insonparvar, barkamol shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Tarbiya mahalliy, ijtimoiy – iqtisodiy shart - sharoitlar, milliy an'analar va mintaqalararo xususiyatlarni hisobga olgan holda olib boriladi. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlarini rivojlanadi. Xarakteri, g’oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari

shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz 0‘tar, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniylar kabi ulug’ allomalarimiz inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.Tarbiya jarayonida kattalar, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar jamoasi hisoblanadi. Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning sifatiga bog’liqdir

Ayni chog‘da tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari shaxsning rivojlanish darajasiga bogliq. Tarbiyajarayoni murakkabdir.Shuning uchun ham u tarbiyachidan bolaning ruhiy holati, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, mehribonlik bilan yondashishni talab qiladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchi shaxsini diqqat bilan o‘rganishi, ularni tushunishi, hurmat qilishi lozim.

Tarbiyalanuvchilarning hayotiy faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq va ularning munosabatlari oqilona tashkil qilinar ekan, tarbiyajarayoni shunchalik samarali amalga oshiriladi.Insonni uning atrofini qurshab turgan vositalar: oila, ota-onasi, maktab, do`stlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar tarbiyalaydi. Shaxsning rivojlanish va shakllanish jarayonini boshqarib borish kerak. Shunga ahamiyat berish lozimki, amalda tarbiyaviy jarayon umumxalq ishi va uzlucksiz bo`lsin, barcha yoshdagи bolalarni qamrab olsin, turli ijtimoiy, jamoat va davlat institutlari va muassasalarining shaxs o‘zaro munosabatda bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz>. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
- 2.<https://lex.uz>. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni. 2018 yil 21 sentabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” mavzusidagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasi.// “Xalq so‘zi” gazetasi 2018 yil 8 dekabr.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T. “Ma’naviyat”, 2008, 43-bet.
5. Quronov.M. Bolam baxtli bo`lsin, desangiz... .T. “Ma’naviyat”, 2014, 22-bet.

